

O'ZBEKISTON QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISHNI BOSHQARISH TIZIMINING HOZIRGI HOLATI VA IQTISODIY SAMARADORLIK TAHLILI.

Кутбитдинова Мохигул Иноятовна

ТДИУ Маркетинг кафедраси и.ф.н., доценти

E-mail: moxigulinoyatovna97@gmail.com

ORCID: [0009-0006-8422-6868](https://orcid.org/0009-0006-8422-6868)

CURRENT STATE AND ECONOMIC EFFICIENCY ANALYSIS OF THE PRODUCTION MANAGEMENT SYSTEM IN THE CONSTRUCTION MATERIALS INDUSTRY ENTERPRISES OF UZBEKISTAN.

Mohigul Inoyatovna Kutbitdinova

Candidate of Economic Sciences, Associate Professor, Department of Marketing, Tashkent State University of Economics, Tashkent, Uzbekistan.

E-mail: moxigulinoyatovna97@gmail.com

ORCID: [0009-0006-8422-6868](https://orcid.org/0009-0006-8422-6868)

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasi qurilish materiallari sanoati korxonalarining hozirgi holati, ishlab chiqarishni boshqarish tizimi va ularning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari dinamikasi tadqiq etilgan. So'nggi yillarda tarmoqda amalga oshirilgan tarkibiy o'zgarishlar, yirik korxonalarning ishlab chiqarish quvvatlari hamda ularning hududiy joylashuvi tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida sohadagi boshqaruv tizimining tashkiliy tuzilishi makro, mezo va mikro darajalarda o'rganilib, korxonalarning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari (2021-2025 yillar) tahlil etilgan. Shuningdek, soha korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish yo'llari aniqlanib, boshqaruv tizimidagi mavjud muammolar SWOT-tahlil vositasida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: qurilish materiallari sanoati, boshqaruv tizimi, iqtisodiy samaradorlik, tashkiliy tuzilma, mehnat unumdorligi, investitsiya, rentabellik, SWOT-tahlil.

Abstract. The article examines the current state, production management system, and dynamics of economic efficiency indicators of enterprises in the construction materials industry of the Republic of Uzbekistan. Structural changes implemented in the sector in recent years, production capacities of large enterprises, and their regional distribution are analyzed. Within the scope of the study, the organizational structure of the management system in the industry is explored at the macro, meso, and micro levels, and the economic efficiency indicators of enterprises for the period of 2021-2025 are evaluated. Furthermore, ways to enhance the competitiveness of sector enterprises are identified, and existing problems within the management system are highlighted using SWOT analysis.

Keywords: construction materials industry, management system, economic efficiency, organizational structure, labor productivity, investment, profitability, SWOT analysis.

Kirish.

O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi va modernizatsiyalashuvi jarayonida qurilish materiallari sanoati strategik ahamiyatga ega bo'lgan yetakchi tarmoqlardan biri hisoblanadi. Mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli urbanizatsiya dasturlari va infratuzilma loyihalari qurilish materiallariga bo'lgan ichki ehtiyojni keskin oshirmoqda. Shu bilan birga, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlash tarmoq korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish tizimini tubdan isloh qilishni, resurs tejankor ilg'or texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda [1].

So'nggi yillarda sohaga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmining ortishi ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining ijobiy dinamikasini ta'minladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 20-noyabrdagi sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga bag'ishlangan taqdimot ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi kunda respublikada qurilish materiallari tarmog'ida 10 mingga yaqin korxona faoliyat yuritmoqda. Biroq, jahon bozoridagi raqobatning kuchayishi va ekologik talablarning qat'iylashuvi sharoitida, soha korxonalarining iqtisodiy samaradorligini boshqaruv omillari orqali baholash va mavjud muammolarni bartaraf etish dolzarb ilmiy-amaliy masala bo'lib qolmoqda.

Adabiyotlar sharhi.

Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish samaradorligi va boshqaruv tizimini takomillashtirish masalalari jahon va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Jumladan, klassik iqtisodiy nazariya namoyandasi J.Shumpeter innovatsiyalar va boshqaruv shakllarining yangilanishi korxonalarning uzoq muddatli iqtisodiy o'sishini ta'minlovchi asosiy omil ekanligini ta'kidlaydi [4]. Taniqli olim

M.Porter o'zining korxona va milliy tarmoqlar raqobatbardoshligi nazariyasida ishlab chiqarish omillari, strategiya hamda boshqaruv sifati o'rtasidagi tizimli aloqadorlikni asoslab bergan [5].

Zamonaviy sharoitda sanoat tarmoqlarini tizimli modernizatsiya qilish prinsiplari G.Kleiner tomonidan tadqiq etilgan bo'lib, unda boshqaruv tuzilmalarining moslashuvchanligiga alohida urg'u beriladi [9]. Mahalliy olimlardan S.Gulyamov o'z tadqiqotlarida sanoat tarmoqlariga raqamli texnologiyalar va ERP tizimlarini joriy etish orqali boshqaruv samaradorligini oshirish masalalarini yoritgan [7]. A.Vaxabov esa yashil iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarida resurs samaradorligini oshirish muammolarini o'rgangan [6]. Qayd etilgan tadqiqotlarga qaramay, qurilish materiallari sanoati korxonalarining hozirgi transformatsiya bosqichidagi boshqaruv tizimi va iqtisodiy samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlikni tizimli tahlil qilish masalalari hali yetarlicha ochib berilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy va tarkibiy tahlil, iqtisodiy-statistika metodlari hamda SWOT-tahlil uslubiyotidan foydalanildi. Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasining rasmiy hisobotlari hamda tarmoqning yetakchi korxonalari tomonidan taqdim etilgan birlamchi iqtisodiy ma'lumotlar tashkil etdi [2, 3]. Korxonalarning raqobatbardoshligi va boshqaruv tizimidagi muammolar M.Porterning "milliy romb" modeli va SWOT-matritsasi yordamida baholandi.

O'zbekiston qurilish materiallari sanoatining tashkiliy boshqaruv tuzilishi bugungi kunda uchta ierarxik darajada

shakllangan: makro (davlat boshqaruvi), mezo (tarmoq uyushmasi) va mikro (alohida korxonalar) daraja [9]. Makro darajada strategik muvofiqlashtirish va investitsiya siyosati Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi tomonidan amalga oshiriladi [1]. Shuningdek, xom ashyo bazasidan samarali foydalanishni nazorat qilish maqsadida Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi huzurida maxsus inspeksiya tashkil etilgan.

Mezo darajadagi boshqaruv funksiyalarini 270 dan ortiq yirik ishlab chiqaruvchilarni birlashtirgan "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi bajaradi [3]. Mikro darajada esa korxonalarning aksariyati aksiyadorlik jamiyatlari va mas'uliyati cheklangan jamiyatlar shaklida faoliyat yuritib, ularda korporativ boshqaruv modellari qo'llanilmoqda.

Tadqiqot doirasida respublikadagi qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi yetakchi korxonalarning quvvatlari tahlil qilindi (1-jadval).

1-jadval

O'zbekistondagi yetakchi qurilish materiallari korxonalarining asosiy tavsiflari.

№	Korxona nomi	Hududiy joylashuvi	Yillik ishlab chiqarish quvvati	Xodimlar soni
1	"Ohangaronsement" AJ	Toshkent viloyati	3,8 mln. tonna sement	1850
2	"Qizilqumsement" AJ	Navoiy viloyati	3,5 mln. tonna sement	1750
3	"Karakalpak Sement" MChJ	Qoraqalpog'iston Resp.	2,5 mln. tonna sement	1200
4	"Bekobod Sement" MChJ	Toshkent viloyati	1,8 mln. tonna sement	950
5	"Quvasoysement" AJ	Farg'ona viloyati	1,2 mln. tonna sement	780
6	"Surxon Sement" MChJ	Surxondaryo viloyati	1,0 mln. tonna sement	650
7	"Praym Keramiks" MChJ	Toshkent viloyati	12 mln. kv.m kafel	520
8	"Aziya Metall Prof" MChJ	Toshkent shahri	250 ming tonna profil	450

Manba: "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tizimlashtirildi [3].

Jadval ma'lumotlari tarmoqda ishlab chiqarish quvvatlarining hududlar bo'yicha yuqori darajada konsentratsiyalashganligini ko'rsatadi. Korxonalarning qariyb 28 foizi

Toshkent viloyati va Toshkent shahriga to'g'ri keladi, bu esa xom ashyo zaxiralari va yirik iste'mol bozoriga yaqinlik omili bilan izohlanadi [3].

Tarmoqning
yillardagi asosiy iqtisodiy
ko'rsatkichlari dinamikasi tahlili so'nggi

yillarda ishlab chiqarish va eksport
hajmining barqaror o'sganligini tasdiqlaydi
(2-jadval).

2-jadval

O'zbekiston qurilish materiallari sanoatining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari dinamikasi (2021–2025 yy.)

Ko'rsatkichlar	2021	2022	2023	2024	2025
Ishlab chiqarish hajmi, trln. so'm	23,7	29,1	35,7	40,0	53,0
Sement ishlab chiqarish, mln. tonna	11,9	12,2	14,5	15,8	16,8
Eksport hajmi, mln. AQSh dollari	315	485	720	950	1100
Mehnat unumdorligi, mln. so'm/odam	175	225	280	335	380
O'rtacha rentabellik darajasi, %	13,8	14,9	16,2	17,5	18,7
Sohada band bo'lganlar soni, ming kishi	82	91	99	108	118

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzildi [3].

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarish hajmi 2021-yildagi 23,7 trln. so'mdan 2025-yilda 53,0 trln. so'mga yetgan. Mehnat unumdorligi mos ravishda 2,1 baravarga oshib, bir xodimga 380 mln. so'mni tashkil etgan. Eksport hajmi esa 1,1 mlrd. dollardan oshib, o'sish sur'ati yuqoriligicha qolmoqda. Sement ishlab chiqarish hajmi 2025-yilda 16,8 mln. tonnaga yetdi.

Biroq, iqtisodiy samaradorlikning ortishi asosan ekstensiv omillar — yangi

quvvatlarni ishga tushirish va investitsiyalar hisobiga ta'minlanmoqda. Boshqaruv tizimida raqamlashtirish darajasi hamon past (korxonalarning faqat 25-30 foizida ERP tizimlari joriy etilgan), boshqaruv apparati xarajatlari esa yuqoriligicha (umumiy xarajatlarning 8-12 foizi) qolmoqda [7, 8].

Tarmoq korxonalarining raqobatbardoshlik holatini tizimli baholash maqsadida SWOT-tahlil o'tkazildi (3-jadval).

3-jadval

O'zbekiston qurilish materiallari sanoatining SWOT-tahlili

KUCHLI TOMONLAR (Strengths)	ZAIF TOMONLAR (Weaknesses)
1. Boy mineral xom ashyo bazasining mavjudligi. 2. Energiya resurslarining nisbatan arzonligi. 3. Ichki va mintaqaviy bozorning kengligi. 4. Keng ko'lamli davlat dasturlari va qo'llab-quvvatlash.	1. Texnologik uskunalarning eskirganligi (55-65%). 2. Xalqaro sifat sertifikatlarining (ISO) kamligi. 3. Logistika va transport xarajatlarning yuqoriligi.

	4. R&D (ilm-fan) xarajatlarining pastligi (0,4%).
IMKONIYATLAR (Opportunities)	XAVF-XATARLAR (Threats)
1. Markaziy Osiyo va Afg'oniston bozorlariga chiqish. 2. Ishlab chiqarishni raqamlashtirish (ERP) imkoniyati. 3. "Yashil" va energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish.	1. Tashqi bozorlarda (Xitoy, Eron) dumping xavfi. 2. Yevropa Ittifoqining CBAM (uglerod solig'i) joriy etishi. 3. Energoresurslar narxining erkinlashuvi.

Manba: Muallif tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida shakllantirildi.

SWOT-tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, tarmoqning asosiy zaif tomoni boshqaruv sifati va innovatsion faollikning pastligidir. R&D xarajatlarining yalpi tushumdagi ulushi atigi 0,4 foizni tashkil etadi, bu esa xalqaro ko'rsatkichlardan ancha orqada [8]. Global miqyosda 2026-yildan kuchga kiradigan uglerod solig'i (CBAM) talablari milliy sement va qurilish materiallari eksporti uchun jiddiy xavf tug'diradi, bu esa korxonalardan boshqaruv strategiyasini zudlik bilan "yashil iqtisodiyot" prinsiplariga moslashtirishni talab qiladi [5, 6].

Xulosa

O'zbekiston qurilish materiallari sanoati korxonalarida boshqaruv tizimi va iqtisodiy samaradorlik tahlili quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi:

1. Tarmoqda ishlab chiqarish hajmlari barqaror o'sayotgan bo'lsa-da, boshqaruvning tashkiliy tuzilmalari eskirgan, qarorlar qabul qilish mexanizmi markazlashgan va moslashuvchanligi past.

2. Iqtisodiy samaradorlik asosan resurslarni ko'paytirish hisobiga bo'lmoqda. Mehnat unumdorligini yanada oshirish uchun ishlab chiqarish jarayonlarini to'liq raqamlashtirish (ERP va CRM tizimlari) zarur.

3. Tarmoq korxonalarining xalqaro raqobatbardoshligini ta'minlash uchun korporativ boshqaruvni takomillashtirish, innovatsiyalar (R&D) ulushini oshirish hamda "yashil" boshqaruv standartlarini joriy etish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 2022-y.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 20-noyabrdagi sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga bag'ishlangan taqdimoti materiallari.
3. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi va

“O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasining yillik hisobotlari (2021-2025 yy.).

4. Schwab K. The Fourth Industrial Revolution. - Geneva: World Economic Forum, 2018. - 192 p.
5. Teece D.J. Business Models, Business Strategy and Innovation // Long Range Planning. - 2020. - Vol. 53, Issue 4. - P. 101-118.
6. Vaxabov A.V. “Yashil iqtisodiyot”. Darslik. - Toshkent: Universitet, 2020. - 280 b.
7. Gulyamov S.S. Sanoat tarmoqlarida raqamli texnologiyalar va integratsiyalashgan boshqaruv. - Toshkent: Fan, 2023. - 214 b.
8. Tursunov K.K. Strategy of sustainable development based on eco-innovations // Journal of Management and Economic Studies. - 2022. - Vol. 4(2). - P. 115-128.
9. Bharadwaj A., El Sawy O.A., Pavlou P.A. Digital Business Strategy: Toward a Next Generation of Insights // MIS Quarterly. - 2024. - Vol. 48, No. 1. - P. 371-394.
10. D.Yu.Matrizayeva, Kutbitdinova M.I. Интеграция корпоративной культуры и факторов экономической эффективности промышленности: сравнительный анализ регионов узбекистана с акцентом на хорезмскую область “Raqamli iqtisodiyot” ilmiy-elektron jurnali, 13-son, 2025 yil 1890-1897 b.
11. D.Yu.Matrizayeva, Kutbitdinova M.I. Комплаенс-контроль: расширение современных методов корпоративного управления // European Journal of Interdisciplinary Research and Development Volume-14 April – 2023 page 139-146
12. D.Yu.Matrizayeva, Kutbitdinova M.I. Expanding modern methods of corporate management in the compliance control system. Talim fidoyilari ilmiy elektron jurnal 8-son, 1-jild avgust 2022 1-qism 162-168 b.